

**BADIIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI**

(Alisher Navoiy ijodi misolida)

**Abdulazizbek QODIROV**

*Qo'qon universiteti Andijon filiali Pedagogika, psixologiya va filologiya kafedrası katta o'qituvchisi*

**DOI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806395>

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada badiiy asarni tahlil qilishda adabiyot va din integratsiyasining ahamiyati xususida so'z yuritilgan. Mazkur masala Alisher Navoiy ijodi misolida tahlil qilinib, fikrlar misollar bilan dalillangan.*

**Kalit so'zlar:** *tahlil, din, integratsiya, tasavvuf, vahdat ul-vujud, panteizm, tabiat, salaf.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается важность интеграции литературы и религии при анализе произведения искусства. Данный вопрос анализируется на примере творчества Алишера Навои, идеи доказываются примерами.*

**Ключевые слова:** *анализ, религия, интеграция, мистика, единство, пантеизм, природа, предшественник.*

**Abstract:** *This article discusses the importance of the integration of literature and religion in the analysis of a work of art. This issue is analyzed on the example of Alisher Navoi's work, and the ideas are proved with examples.*

**Key words:** *analysis, religion, integration, mysticism, unity, pantheism, nature, predecessor.*

Musulmon Sharqida ulug' mutaffakkirlar ijodiga beqiyos ta'sir etgan ta'limotlardan biri vahdat ul-vujuddir. Vahdat ul-vujud yagona vujudning borligi va birligi demakdir. Mazkur ta'limotga ko'ra olam va undagi maxluqlar yagona vujud – Mutlaq Zotning jamolini, qudratini va sifatlarini o'zida aks ettirish uchun yaratilgan. Parvardigor yakka-yu yagona boqiy vujud, chunki U bor bo'lish uchun mutlaq vujudga muhtoj emas. Bor bo'lish uchun moddiy vujudga muhtoj bo'lgan mavjudotlar esa vujud emas, ular Mutlaq Zotning in'ikosidir. Shunday ekan, Yaratganning ijodi bo'lmish barcha narsalarda Uning O'zi tajalli etmog'i lozim. Ba'zi olimlar vahdat ul-vujudni XVIII asr boshlarida G'arb falsafasida paydo bo'lgan panteizm g'oyasi bilan yonma-yon qo'yadilar. Lekin bu fikr xato. Chunki bu ikki ta'limot faqatgina tashqi tomondan qaraganda o'xshash, biroq mohiyat jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida panteizm tushunchasiga "Xudo va tabiat bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi deb hisoblovchi diniy va falsafiy ta'limot" deya ta'rif beriladi. Panteizm nazariyasi tarafdorlari Yaratgan bilan tabiat bir narsa, ular birgalikda bir butunni tashkil qiladi deb hisoblasalar, vahdat ul-vujudda Allohga alohida borliq sifatida qaraladi. Bu haqida Najmiddin Komilov: "Albatta, vahdat ul-vujud falsafasida "Hamma narsa Undan" tushunchasi bilan birga "Hamma narsa Udir" tushunchasi ham ba'zan qo'llaniladi. Biroq, shunga qaramay, buni "Tabiat Xudodir" degan g'oyaga

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tenglashtirolmaymiz. “Hamma narsa Udir” degan qarashda Xudoning zoti sifatlarida mujassam, degan fikr ifodalanadi”[2.62] deya to‘g‘ri va asosli xulosaga keladi.

Alisher Navoiy ijodini kuzatar ekanmiz, uning tasavvufiy qarashlarining shakllanishida asos bo‘lgan qator jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. Uning vahdat-ul-vujudga oid qarashlarining shakllanishiga turtki bo‘lgan manbalardan biri buyuk mutasavvuflar fikrlari va o‘z salaflarining asarlaridir. Jumladan, tasavvufda birinchilardan bo‘lib o‘zlikdan kechish va Haqqa qo‘shilishni targ‘ib qilgan Boyazid Bistomiydir. Uning fikricha, inson haqiqatni idrok etish uchun, ogohlikka yetishi lozim chunki ogohlik qalb uyg‘oqligidir. Har qanday tolib ogohlikka yetmas ekan, Ka‘bani tavof qilish ham uning uchun foydasizdir. Solikning ogohlikka yetishi dastlab o‘zlikni anglashdan boshlanadi. O‘zligini anglagan kishi esa, o‘z nafsini boshqaradi va o‘zini har tomonlama fano qila oladi. So‘fiy Haqqa qo‘shilish uchun o‘z menidan voz kechish kerakligini ta’kidlaydi. Bu haqida, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida shunday yozadi: “Boyazid dediki, Alloh taoloni tush ko‘rdim, so‘rdumki, bor xudoyo, yo‘l senga ne nav’dur? Dedikim, o‘zungdun o‘ttung, yetting”[3.128]. O‘zidan o‘tish - bu o‘zlikdan kechish bo‘lib, u fanoga yetaklaydi. Inson ruhan Alloh bilan birlashadi shuning uchun ham Boyazid Bistomiy Haq deb e‘lon qiladi. Uning bunday qarashi fano va baqo nazariyasiga asoslangan edi.

Biz yuqorida vahdat ul-vujud va panteizm tushunchalari yuzaki qaraganda o‘xshash ekanligini aytib o‘tdik. Shu jihatdan, hozir ham Navoiy asarlarida panteizm elementlari bo‘y ko‘rsatadi deb hisoblovchilar ham bor. Xususan, Ahsan Quliyevning 2015-yilda Bokuda nashr qilingan “Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari” kitobida Alisher Navoiy dunyoqarashining asosini panteizm tashkil qiladi, deb qat’iy xulosa chiqarilgan. Albatta, mazkur fikr bahstlab bo‘lib, atroflicha tahlilni talab qiladi. Navoiy asarlarini bu jihatdan tahlil qilishda esa tahlilchida yuksak nazariy bilim bilan bir qatorda, din va diniy ta’limotlardan ham boxabarlik bo‘lishi lozim.

Slovakiyalik adabiyotshunos Sh.L.Chaudry “Ingliz adabiyotida diniy qarashlar” maqolasida asarni din bilan bog‘lab tahlil qilishning juda murakkab soha ekanligini va bu adabiyotshunosdan nazariy qoidalarni bilish bilan bir qatorda, din, dinlar tarixini ham mukammal bilishni talab qilishini ta’kidlaydi[4.27]. Bu masala, ayniqsa, xristian dini bilan bog‘liq tushunchalarning badiiy adabiyotda qo‘llanilishi, ularning tahlili jarayonida diniy ta’limotlarning no‘tog‘ri talqin qilinishi va buning oqibatida xristian dinining insonlar o‘rtasida obro‘sizlanishiga olib keladi. Diniy ta’limotlardagi inson erkini o‘zida aks ettirgan asarlarni axloqsizlik targ‘ib qilingan asar sifatida baholash holatlari ko‘payganidan so‘ng dunyo adabiyotshunoslik ilmida adabiyotshunoslik va din integratsiyasiga ehtiyoj har qachongidan ham ko‘ra ko‘proq

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

sezildi. Jahon adabiyotshunosligida ham dolzarb sanalgan mazkur masalaga olim “Navoiyni anglash yo‘lida” maqolasida e‘tibor qaratadi. Olim maqolada, “Bilasiz, hazrat haqida so‘z ketsa, barcha birdek ul zotning serqirra iste‘dod ekanini aytib tolmaydi-yu, merosi go‘yo bir adabiyotshunoslarga xatlab berilgandek tushuniladi. Holbuki, adolat yuzasidan qaralsa, Navoiyning ayrim asarlari haqida tarixchining, ayrimlari haqida tilshunosning, yana birlari haqida din ulamosining fikri e‘tiborliroq tutilishi lozim” deb aytadi. D.Quronov Hazrat Navoiy ijodini o‘rganishda adabiyot va din integratsiyasining zarurati haqida gapirib, shunday deydi: “Sirasini aytganda, adabiyotshunoslik ilmida, garchi ochiq e‘tirof etilmagan bo‘lsa-da, din ulamolari yordamiga ehtiyoj allaqachon yetilgan. Bilasiz, istiqlol arafalaridan boshlab mumtoz adabiyotimizni islom dinidan, tasavvufdan ayro holda tugal tushunish va obyektiv baholash mumkin emasligi teran anglandi. Uzoq yillar davomida adabiy merosning shu ikki omilni e‘tibordan soqit qilgan holda o‘rganilgani chala hukm-xulosalar, biryoqlama yuzaki yoki mutlaqo teskari talqinlarga olib kelgani bugun hech kimga sir emas. Shuningdek, mustaqillik yillari adabiyotshunosligimizda mumtoz adabiyotni islomiy, tasavvufiy nuqtayi nazarlarni e‘tiborda tutib talqin qilish urfga kirgani ham hammaga ma‘lum. Biroq bu yo‘lda amalga oshirilgan ishlar hali qanoatlanarli emas”[5].

Xulosa qilib aytganda, Navoiy ijodini o‘rganish adabiyotshunoslarninggina ishi emas. Buyuk shaxsning ijodini haqqoniy qilib o‘quvchiga taqdim qilishda adabiyotshunos, tilshunos, tarixchi va din ulamosining fikrlari umumlashmog‘i lozim. Bundan tashqari, hazrat Navoiy ijodidagi islomiy mavzularni tahlil qilayotgan mutaxassis, avvalo, diniy masalalarni yaxshi bilishi va islomni Navoiy singari hayot va fikrlash tarzini belgilaydigan asosga aylantirmog‘i lozim. Shundagina buyuk shoir nazarda tutgan diniy-axloqiy masalalarning tub mohiyatiga yetish mumkin. Albatta, Navoiy ijodida diniy-axloqiy masalalarning o‘rni juda katta. Biroq, tahlil qilayotgan insonning ham bilimi Navoiyni tushunish darajasida bo‘lishi maqsadga muvofiq keladi.

### Adabiyotlar ro‘yxati

#### (Использованная литература / References):

1. Абдукодиров А. Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти – Тошкент: 2009.
2. Комилов Н.Тасаввуф // Movarounnahr- O‘zbekiston. 2009.
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: 2013.
4. Glimpses of Religion in English Literature”. Shahzad Latif Chaudhary. American International Journal of Contemporary Research. Vol.3 No. 12; December 2013.
5. И.В. Зайцев. Рукописи и литографированные издания произведений Алишера Навои в московских собраниях. Каталог. М.: Центр книги Рудомино, 2016. - 208 с.
6. «Труды Алишера Навои поистине являются драгоценной жемчужиной мировой сокровищницы знаний»/ <https://www.turkishnews.com/ru/content/2016/02/03>
7. Quronov D. Navoiyni anglash yo‘lida: – quronov.uz